

UDK: 821.512.133.06.09-21

## ISMOIL SAPARBOYNING “AMIR TEMUR” TARIXIY DRAMASI BADIY TAQINI

G‘ulomjon Atadjanov,

O‘zR IIV Akademiyasi O‘zbek va chet tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
[atadjanovgulomjon262@gmail.com](mailto:atadjanovgulomjon262@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada istiqlol yillarida qozoq adabiyotida yaratilgan Ismoil Saparboyning “Amir Temur” she‘riy dramasi tahlil etiladi. Bu she‘riy tarixiy drama buyuk fohit Amir Temur haqida yaratilgan o‘zbek tarixiy dramalari bilan qiyoslangan va uning jangu-jadallardan chiqargan hayotiy-falsafiy xulosalari tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarixiy she‘riy drama, tarixiy obraz, adolat, to‘qima obraz, Amir Temur.

**Abstract.** This article analyzes the poetic drama "Sahibqiron" by the Hero of Uzbekistan Abdulla Oripov, created during the years of independence. In this poetic historical drama, the great conquistador Amir Temur and his life-philosophical conclusions drawn from the battles are studied.

**Key words:** historical poetic drama, historical image, historical truth, justice, textile image, image of Amir Temur.

**Аннотация.** В данной статье анализируется поэтическая драма Исмоиля Сапарбоя «Амир Темур», созданная в казахской литературе в годы независимости. Данная поэтическая историческая драма сопоставляется с узбекскими историческими драмами о великом полководце Амуре Темуре, а также исследуются жизненно-философские выводы, сделанные им в ходе сражений и борьбы.

**Ключевые слова:** историческая поэтическая драма, исторический образ, справедливость, вымышленный образ, Амир Темур.

**Kirish.** O‘zbek adabiyotida buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temur siymosi yoritilgan tarixiy dramalar anchagina. Dramaturgiyamizda tarixiy dramaning tamal toshini birinchi bo‘lib Abdurauf Fitrat boshlab berdi. Uning dramaturgiya sohasidagi ilk izlanishlari aynan tarixiy drama mavzusi bilan bog‘liq. Fitrat o‘zbek dramaturgiyasida olis tarixga nazar soldi va “O‘g‘uzxon”, “Temur sag‘anasi”, “Abulfayzxon”, “Qon”, “Begijon”, “Abo Muslim” kabi tarixiy dramalarini yozdi. Dastlabki ikki tarixiy dramalarning to‘liq matni yetib kelmagan. Bu tarixiy dramalardan parchalar va ularning sahnalashtirilganligi haqidagi afisha va e‘lonlari yetib kelgan. “Temur sag‘anasi” dramasi 1917-yilda yozilgan bo‘lib, asar voqealari Amir Temur qabri yonida kechadi. Bu haqida Hamid Olimjonning 1935-yilda yozgan “Fitratning adabiy ijodi haqida”[4.5-6] nomli maqolasida parcha mavjud. Parchadan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pyesa qahramonlari Temur qabriga keladilar va Temurning ruhi bilan suhbatlashadilar.

**Adabiyotlar tahlili.** Bu haqida akademik N.Karimov “XX asr adabiyoti manzaralari”[3.392] kitobida ma‘lumot bergan. Mustaqillikka erishgandan so‘ng sohibqiron ijodi bo‘yicha yozilgan ilk tarixiy drama Qilich Abdunabiyevning “Amir Temur va Yildirim Boyazid” asari bo‘ldi. Dramaturg bu asar ustida anchadan beri ishlab kelgan. Va nihoyat 1991-yil kuzda tugallangan. Amir Temurning 660 yilligini keng

miqyosda nishonlash maqsadida 1996-yilda ijodiy topshiriqlar, rejalar va maxsus farmonlar asosida ko'pgina tadbirlar o'tkazildi. Binobarin, buyuk sarkarda Amir Temur haqida Odil Yoqubovning "Fotih muzaffar yoxud Bir parivash siri ("Avlodlarga vasiyat")", Abdulla Oripovning "Sohibqiron", To'ra Mirzaning "Amir Temur", "Amir Temur va To'xtamish", "Amir Temurning so'nggi kunlari" trilogiyasi, Ma'ruf Jalilning "Sohibqiron", Asror Samadning "Sohibqiron Temur haqida qissa", S.Sirojiddinovning "Sohibqiron Temur", Burxon Ismoilovning "Sarbadorlar" va "Samarqandnoma", Turob Akbarxo'jayevning "Zamon o'g'loni", S.Po'latovning "Sohibqiron vasiyati", T.Zulfiqorovning "Temur va Hofiz", N.Qobulovning "Amir Temur fojiasi", A.Ikromovning "Buyuk Temur", Sh.Pardayevning "Jahongir", U.Sattorovning "Sohibqiron afsonasi", H.Muhammadning "Temurning tug'ilishi", E.Xushvaqto'vning "Temurnoma", T.Mardiyevaning "Sohibqiron kelini", N.Abbosxonning "Sohibqiron onasi", Usmon Azimning "Amir Temur. Adolat fasli", Asror Samadning "Sohibqiron Amir Temur yoxud adolat qilichi" kabi o'ttizga yaqin tarixiy dramalari yozildi. Amir Temur haqida nafaqat o'zbek adabiyotida balki, qo'shni qozoq adabiyotida ham tarixiy dramalar yozilgan. Shulardan biri Ismoil Saparboyning "Amir Temur" tarixiy dramasidir. Asar she'riy yo'lda yozilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tarixiy drama "Sharq yulduzi" jurnalining 2022-yil 6-sonida nashr etilgan bo'lib, o'zbek tiliga Faxriyor mahorat bilan tarjima qilgan. Drama ikki bo'lim, o'n uch ko'rinishdan iborat. Ko'rinishlar hajm jihatidan biroz kichik. Bunda ishtirok etuvchi obrazlar quyidagilar: Amir Temur, Xo'ja Ahmad Yassaviy–Amir Temurning ma'naviy piri, Imom Baraka–Amir Temurning ma'naviy ustoz, Ilyosxo'ja–Samarqand hukmdori, Husayn–amir, Jahongir–amirzoda, Barxan–bahodir, Arg'unshoh–saroy sardori, Javharxon–Arg'unshohning qaylig'i, Validdin ibn Xaldun–Bag'dod shoiri, Qaysar (Boyazid)–turk sultoni, Saroymulkxonim, Inqorbegim–Amir Temurning xotinalari, Cho'lpon Mulk, Amirlar, navkarlar, saroy xizmatkorlaridan iborat. Shoh Malik, Sulaymon, Burundiq, Shayx Nuriddin, Kayxusrav kabi ishonchli do'stlari bo'lsa-da ishtirok etuvchilar ro'xatiga kiritilmagan.

**Tahlillar va natijalar.** Drama Amir Temurning chodir ichida darg'azab bo'lib o'tirishidan boshlanadi. Sarkarda Barxan bilan suhbat qilarkan, Amir Temurni Hoji Barlosga qarshi qaraydi. Buni sezib uni sinaydi ham. Chorasiz qolgan Amir Temur piridan yordam so'raydi.

Xo'ja Ahmad Yassaviy  
(O'zi ko'rinmay, ovozi eshitiladi)  
Hazrat Alining  
Mana bu so'zlarini esingga olgin:  
"Agar osmon sadoq bo'lsa egilgan,  
Taqdir o'qdir ko'kdan yerga to'kilgan.  
Xos merganning o'zi bo'lsa Yaratgan,

Jon qutulmas joyga o‘qini otgan...”

Bu misolning ta’biri shu, tamsil-shu:

Qarshi borma qattol yovga, qoch, yohu... [1.64]

deb maslahat beradi. Keyingi ko‘rinishda Amir Temur Husaynning ogohlantirshiga qaramasdan Samarqandga Ilyosxo‘ja ustiga tunda yurish qiladi. Taxt o‘tirar ekan birdan Barxan Amir Temurga tashlanib qoladi. Uning haqiqiy yuzi ochiladi. Uning yagona maqsadi faqat taxt edi. Shu yerning o‘zida Baxran bilan jang qilib uni o‘ldiradi.

A.Oripovning “Sohibqiron” she’riy dramasi birinchi sahnasidan uning naqadar odil bo‘lganligini Amir Husayn bilan bo‘lgan ziddiyatlardan ham bilsa bo‘ladi. Ichi hasadga to‘lib ketgan Amir Husayn bir necha bora Amir Temurga pand bergan bo‘lsa ham uni kechiradi. Bir tomondan yoshlikdagi do‘sti bo‘lsa, ikkinchi tomonidan u qayin og‘asi, ayoli Uljoy Turkonning akasi edi.

Uljoy Turkon

Afsuski, men xabardorman buning baridan

Necha yildir orangizda qora xusumat.

Aka, Sizning joningizni Ulug‘ Amirdan

Qancha marta so‘rab oldim yig‘lab, yolborib. [2.17]

Sohibqiron Amir Temur uni birdan jazoga buyurmaydi. Uning adolatparvarligi shundaki, dushmanining jonini o‘rtaga tashlasa, bu asarda Amir Temur shunday gaplarni aytadi:

### Amir Temur

Quloq tuting so‘zimga:

Bir narsani o‘ylab hech

Kelolmayman o‘zimga,

Xayolim band erta-kech.

Xullas, gapning qisqasi:

Husayn bilan orani

Uzsammi deb o‘yladim.

Uning qo‘rg‘on-qal’asin

Buzsammi deb o‘yladim [1.64]

degan fikrlarni aytadi. Balxga hujum qilar ekan, saroydagi haramni Samarqandga ko‘chirib olib ketadi. Haram ichida Amir Temur bir Qiz bilan tanishib qoladi. Samarqandga kelgandan so‘ng u bilan suhbatlashadi. Qiz boshidan kechirganlarini aytib beradi. Qiz Balxga aynan Amir Temur hujim qilgan kuni olib kelingan edi. Uning sevgan yigiti Arg‘un borligini Amir Temurga aytadi. Asarda Amir Temur o‘ta zukko, dono inson sifatida tasvirlanadi. U qizning sevgilisi keldi deb uni Arg‘unga berib yubormadi. Arg‘unni sinaydi va uchta shart qo‘yadi. Birinchi qilichbozlik qiladi, so‘ngra Imom Barakaning savoliga javob beradi. Eng qiyini uchinchi shart edi. Beshta qizni birdek kiyintiradi va qaysi biri sevgilisi Javharxon ekanligini topishni buyuradi. Arg‘un bu

sinovdan arang o'tadi va Javharxonni topadi. So'ngra ular Amir Temurning ishongan odamlariga aylanadilar. Asarda Amir Temur Boyazid ustiga bostirib borar ekan shunday gaplarni keltiradi:

Ey, Boyazid, sen ham tur,  
Jangga chiq, biz ikki turk  
Sig'masak bitta yerga,

Bir o'zing kirgin go'rga!!![1.88]

Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasi Boyazidning yozgan maktublaridan, uning hatti-harakatlarini qattiq tanqid qilgan sohibqiron adolatparvarlik nuqtayi nazaridan ikki tildosh va dindosh bitta turk qavmi, aka va uka, taxt talashib jang-u jadal qilsa, talasha bu nomus emasmi deb o'ziga - o'zi savol beradi. Unga qo'shin tortib borishni haqorat deb biladi. Tarixdan ma'lumki, Boyazidning o'zi haddan tashqari o'zidan ketganligi bois unga hujum qilishga majbur bo'ladi.

**Xulosa.** Asarda Amir Temur va Boyazid o'rtasida dahanaki jang bo'ladi. Dramaning o'n birinchi, o'n ikkinchi va o'n uchinchi ko'rinishlaridagi voqealar Yassida bo'lib o'tadi. Jangga shaylanar ekan Xo'ja Ahmad Yassaviydan madad so'rab yolvoradi. Bunga javob sifatida shunday deydi:

Tangringga hozir bo'lgaysan,  
Umringga hazir bo'lgaysan,  
Yo'li uzoq, xitlangaysan,  
Ko'klam, yozda otlangaysan,

Sabr qilgin, sabr qilgin.... [1.101]

Piri sohibqironni ogohlantiryabdi. Uning o'limiga ishora qilyabdi. Ko'klamda yoki yozda otlangin degan gapiga quloq solmaydi. O'n ikkinchi ko'rinishgagi voqelar esa Amir Temurning haramidagi voqelardan iborat. Amir Temur Ingar Begimning gapiga kirib Cho'lpon Mulkni sochiga bo'g'ib o'ldiradi. So'nggi o'n uchinchi ko'rishda Amir Temur tush ko'radi. Tushida Xo'ja Ahmad Yassaviyni ko'radi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mazkur tarixiy dramada Amir Temur aqlli, dono, har ishni o'ylab qiladigan sarkarda sifatida gavdalangan.

#### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.Saparboy. Amir Temur. Sharq yuduzi, 2022 № 6.
2. Oripov A. Sohibqiron she'riy dramasi. PIR nashriyoti, Toshkent: 2022.
3. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2008
4. Ҳамид О. Фитратнинг адабий ижоди ҳақида // Ўзбекистон адабиёти, 1936. №5-6.